O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI
HUZURIDAGI SUDLAR FAOLIYATINI TA’MINLASH
DEPARTAMENTI JIZZAX VILOYAT HUDUDIY BO‘LIMI BOSHLIG‘INING
04 UM-sonli
B U Y R U G‘ I

2025-yil “04” yanvar Jizzax shahri

“Tanlov komissiyasi tarkibini tasdiqlash to`g`risida”

Umumiy yurisdiksiya sudlari va hududiy bo`limi ish faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida moliyalashtirilgan pul mablag`laridan samarali va tejamkorlik bilan foydalanishni ta’minlash, mahsulot yetkazib beruvchilar va xizmat ko`rsatuvchi korxonalar o`rtasida raqobatni rivojlantirish hamda sotib olinadigan tovar-moddiy boyliklarni va ko`rsatiladigan pullik xizmatlar sifatini oshirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1.O`zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to`g`risidagi” 2021-yil 22-apreldagi O`RQ-684-sonli Qonuniga muvofiq, O`zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasiga qo`yilsin hamda yangi binolar qurish, mukammal va joriy ta’mirlash bo`yicha, xom ashyo materiallari, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarning eng yaxshi tanlov takliflari asosida xarid qilinishida ushbu Qonun talablariga rioya qilinsin;

2. 2025-yilning 03-yanvar kunidan boshlab, umumiy yurisdiksiya sudlariga va hududiy bo`lim ehtiyoji uchun, tovarning qiymati bir shartnoma bo`yicha bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravaridan olti ming baravarigacha bo`lgan miqdorni tashkil etishi kerak bo`lgan, ishlarning, xizmatlarning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan olti ming baravarigacha bo`lgan miqdorini tashkil etishi kerak bo`lgan tovar-moddiy qiymatliklarni xarid qilish, binolarni mukammal va joriy ta’mirlash bo`yicha hududiy bo`lim tomonidan shartnomalar tuzishning faqatgina tanlov komissiyasining eng yaxshi tanlov takliflari asosida amalga oshirilishi tartibi davom ettirilsin.

3. 2025-yilning 03-yanvar kunidan boshlab Sudlar faoliyatini ta’minlash departamentining Jizzax viloyat hududiy bo`limining tanlov komissiyasi quyidagi tarkibda yangidan tashkil etilsin:

1. K.Miyliyev - hududiy bo`lim boshlig`i, komissiya raisi;
2. O.Irgashev – hududiy bo`lim bosh xisobchisi, komissiya raisi o`rinbosari;
3. B.Odilov – hududiy bo`lim bosh muxandisi, komissiya a’zosi;

4. A.Julmatov – hududiy bo`lim xo`jalik mudiri, komissiya a'zosi;
5. P.Malikov – hududiy bo`lim bugalter-kassiri, komissiya kotibi.

4. Umumiy yurisdiksiya sudlari va hududiy bo`limi ehtiyoji uchun tovar-moddiy qiymatliklarni xarid qilish yangi binolar qurish hamda binolarda mukammal va joriy ta'mirlash ishlarini bajarish bo`yicha shartnomalarni tuzishdan oldin tanlov o`tkazishda tanlov komissiyasidan quyidagi masalalarga alohida e'tibor berilishi talab etilsin;

- Tovar moddiy qiymatliklarni yetkazib berish yoki pullik xizmat ko`rsatish bo`yicha majburiyatlarini zimmasiga olayotgan korxonalarning huquqiy maqomi va moliyaviy ahvoli hamda shartnomada ko`zda tutilgan faoliyat turi bilan shug`ullanish uchun maxsus ruxsatnoma (лицензия)ga ega ekanligi yuzasidan;

- Tovar moddiy qiymatliklarni yetkazib berish yoki pullik xizmatlar ko`rsatish bo`yicha imzolanishi lozim bo`lgan shartnoma bandlarida tomonlar, xususan hududiy bo`lim manfaatlarining huquqiy himoya etilganligi o`rganilsin.

5. Belgilab qo`yilsinki, tanlov komissiyasi tovar-moddiy qiymatliklarni yetkazib berish yoki pullik xizmat ko`rsatish bo`yicha o`tkazilgan tanlov yakuni to`g`risida bayonnoma imzolasin.

6. Tanlov tashkil etish va o`tkazish, tanlov hujjatlarini rasmiylashtirish va ularni saqlash uchun tanlov komissiyasi raisi o`rinbosari , hududiy bo`lim bosh xisobchisi O.Irgashev mas'ul etib tayinlansin.

7. Sudlar faoliyatini ta'minlash departamentining Jizzax viloyat hududiy bo`limi boshlig`ining 2024-yil 19-martdagi "Tanlov o`tkazish komissiyasini tashkil etish to`g`risida"gi 20 um-01-sonli buyrug`i o`z kuchini yo`qotgan deb hisoblansin.

8. Ushbu buyruqni bajarilishini nazorat qilishni o`z zimmamda qoldiraman.

Asos: Hududiy bo`lim bosh xisobchisi O.Irgashevning bildirgisi.

Bo`lim boshlig`i **K.Miyliyev**

Олий суд ҳузуридаги судлар фаолиятини таъминлаш департаменти Жиззах вилоят ҳудудий бўлими бошлиғи К.Мийлиевга

Ҳудудий бўлим бош хисобчиси О.Иргашев томонидан

БИЛДИРГИ

Жиззах вилояти ҳудудидаги вилоят, туман (шаҳар), туманлараро судлари учун электрон савдо портали орқали харид қилинадиган ишлар (хизматлар) ва барча турдаги асосий воситалар ҳамда товар моддий бойликларни, етказиб берувчилар томонидан шартномада белгиланган талаблар ҳамда параметрлар асосида ҳудудий бўлимга етказиб берилишини назоратга олган ҳолда қабул қилиб олинишини таъминлаш мақсадида, ҳудудий бўлим ходимлари, вилоят судларининг АКТ ходимлари ҳамда хўжалик мудирларидан иборат таркибда ишчи гуруҳ комиссияси тузишингизни сўрайман.

Бош хисобчи О.Иргашев

03.01.2024 й.